

“Muqaddasdir Vatan bayrog’i” nomli madaniy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi

Ma’lumki, Yer yuzida 250 ga yaqin davlatlar mavjud. Albatta, har birining o’z ramzlari, bayrog’i bor. Har bir bayroq esa ayricha rang, joziba va mohiyatga ega. Ular bilan yonma-yon hilpirab turgan O’zbekiston bayrog’i hech kimdan kam emas va kam bo’imasligini ifoda etib turibdi.

Bayrog’imiz o’zida xalqimizning asriy orzu-istiklari, g’ayrat-u shijoatini xalqimizga xos mehmondo’stlik va matonatni mujassam etgan.

Bugun O’zbekiston Respublikasi bayrog’i to’g’risidagi qonun qabul qilingining 30 yilligi munosabati bilan Fanlar akademiyasida “Muqaddasdir Vatan bayrog’i” nomli madaniy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi. Unda Respublika yosh tomoshabinlar teatrining san’atkorlari, Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyaning ijodkorlari, tarixchi olimlar hamda FA ilmiy muassasalarining ilmiy xodimlari ishtirok etdi.





Tadbirni O'zR FA bosh ilmiy kotibi G'.A.Baxadirov olib berdi. Tadbir davomida vitse-prezident B.Abduhalimov ham yig'ilganlarni davlatimiz bayrog'ining 30 yilligi shodiyonasi bilan samimiy qutlab, yoshlarga ilm yo'lida tinimsiz mehnat qilishlarini va xalqaro maydonlarda ilm-fan rivojiga qo'shayotgan xissalari orqali davlatimiz bayrog'ini baland ko'tarishlarini tilab qoldi. Tadbir davomida Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiysi ijodkorlari tomonidan suratga olingan "Davlatimiz ramzlari" nomli hujjatli film namoyishi etildi va suhabat film haqidagi mulohazalarga ulanib ketdi. Kinostudiya ijodkorlari filmning yaratilish tarixi haqidagi qiziqarli ma'lumotlar bilan o'rtoqlashdilar. Tadbir davomida tarixchi olim dunyo bayroqlari va ular orasida o'zbegimning bayrog'ini ta'riflab, sharhlab berdi.

Bugungi tadbir barchaning yodida qolarli ta'surotlarga boy tarzda o'tdi. Barchamizga vatanimiz bayrog'i qabul qilingan kun, 30 yillik shodiyona muborak!